

# O‘ZBEKISTONDA SPORT HAKAMLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Anvar XAYOTOV**

Dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi. E-mail: sunshine\_83@mail.ru.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sport bo‘yicha hakamlarning huquqiy maqomini aniqlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqilgan. Sport hakamlarining huquq va majburiyatlarini huquq normalari bilan tartibga solishning eng munozarali masalalariga e‘tibor qaratilgan. Maqolada amaldagi qonunchilik normalari va asosiy manbalar tahlili asosida hakamlar huquqiy maqomini sohasiy tegishliligi bo‘yicha xulosalar chiqarilgan, shuningdek, hakamlar faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sport, sport huquqi, sport hakamlari, sport hakamlarining huquqiy maqomi.*

**Kirish.** Sport tashkilotlari va sport hakamlari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda sport hakamlarining huquqiy maqomi masalalari sport huquqi fani doirasida alohida e‘tiborni talab qiladi. Sport hakamlarining huquqiy maqomi ular faoliyatining mustaqilligini, shuningdek, mansabdor shaxslar – hokimiyat organlari, ligalar va klublar vakillarining ta‘siridan holi bo‘lishini ta‘minlashi kerak. Shuning uchun sport hakami bilan mehnat shartnomasini tuzgan ish beruvchi (sport federatsiyasi yoki sudyalalar uyushmasi)ga musobaqalarga ishonchli va malakali hakamlar va hakamlar brigadalarini tayinlash uchun qo‘shimcha majburiyatlar (masalan, sport hakami imijini oshirish) va javobgarlik yuklanishi lozim.

Sport huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tarkibining kengayishi va murakkablashishi sport hakamlarining huquqiy maqomini zarur darajada aniqlash muammosini ushbu sohadagi xorijiy tajribani, shuningdek, tegishli sport turlarini bevosita boshqaradigan xalqaro sport tashkilotlarining tajribasini hisobga olgan holda ilmiy ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu masalaning dolzarbligini boshqa tendensiyalar bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, ba‘zi mualliflarning ta‘kidlashicha, eng yirik sport tadbirlar doirasida o‘z vazifalarini bajarayotgan sport hakamlari zimmasiga professional sport olamida davom etayotgan mazkur soha rivojining bugungi bosqichida tobora

ko‘proq mas‘uliyat yuklamoqda va ularning qarorlari nafaqat o‘yinning o‘ziga, balki u bilan bog‘liq tijorat manfaatlariga ham ta‘sir qilishi mumkin.

Sport hakamlarining mustaqil, professional va adolatli hakamligi tufayli sport musobaqalarini o‘tkazish jarayoniga nisbatan jamoatchilikning ishonchi shakllanadi, halol sport raqobati uchun sharoit yaratiladi. Shu bilan birga, sport hakami faoliyati sport musobaqasi uchun oldindan aytib bo‘lmaydigan va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu tezis sport hakamining huquqiy maqomiga qo‘yiladigan aniq talablarni belgilashni taqozo etadi.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Sport hakamining huquqiy maqomini aniqlash uchun qonun hujjatlarini, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi 394-sonli “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonunini tahlil qilish zarur. Qonunning 3-moddasida sport hakami – “sport turi qoidalariga hamda sport musobaqasi to‘g‘risidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini ta‘minlash uchun jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi tomonidan vakolat berilgan, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan va tegishli malaka toifasini olgan jismoniy shaxs” ekanligi mustahkamlangan [2]. Bundan kelib chiqadiki, sport hakami professional sportning asosiy subyektlaridan biridir. Bu uning huquqiy maqomi qonunchilikda to‘liq mustahkamlanishi kerakligini anglatadi.

Biroq, sport sohasidagi qonunchilik tahlili faqatgina ushbu maqomni ifodalovchi alohida parchalarni topishga imkon beradi. Jumladan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida sport hakamlari jismoniy tarbiya va sport subyektlari jumlasiga kiritilgan bo‘lsa, 14-moddada jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar sifatida e‘tirof etiladi. Bundan tashqari, mazkur moddada sport hakami kasbiga doir malaka talablari maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi ham mustahkamlangan bo‘lib, ushbu malaka talablarini O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirining 2014-yil 3-iyundagi 2592-son “Sport turi bo‘yicha sportchi, trener va sport hakami kasblariga qo‘yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan [3].

**Muhokama.** Sport turi bo‘yicha sportchi, trener va sport hakami kasblariga qo‘yiladigan malaka talablariga ko‘ra quyidagilar sport turi bo‘yicha musobaqa bosh sport hakamiga qo‘yiladigan malaka talablari hisoblanadi:

- sport turi bo‘yicha professional mahoratga ega bo‘lishi;

- “Xalqaro toifali sport hakami” yoki “Milliy toifali sport hakami” yoxud “Birinchi toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo‘lishi;

- kamida 5 ta musobaqada sport hakami sifatida ishtirok etgan bo‘lishi.

Quyidagilar sport turi bo‘yicha musobaqa bosh sport hakami o‘rinbosariga qo‘yiladigan malaka talablari hisoblanadi:

- sport turi bo‘yicha professional mahoratga ega bo‘lishi;

- “Xalqaro toifali sport hakami” yoki “Milliy toifali sport hakami” yoxud “Birinchi toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo‘lishi;

- kamida 5 ta musobaqada hakam sifatida ishtirok etgan bo‘lishi.

Quyidagilar sport turi bo‘yicha musobaqa bosh kotibiga qo‘yiladigan malaka talablari hisoblanadi:

- sport turi bo‘yicha professional mahoratga ega bo‘lishi;

- “Xalqaro toifali sport hakami” yoki “Milliy toifali sport hakami” yoxud “Birinchi

toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo‘lishi;

- kamida 3 ta musobaqada hakam sifatida ishtirok etgan bo‘lishi.

Sport hakamlarining huquq va majburiyatlariga kelsak, ularni yana bir normativ-huquqiy hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasining 2017-yil 2-oktyabrdagi “Sport hakamlari va ularning malaka toifalarini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 10-mh-son qarori bilan tasdiqlangan “Sport hakamlari va ularning malaka toifalarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga” belgilab bergan [4].

Sport hakamlari va ularning malaka toifalarini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga ko‘ra quyidagilar sport hakamlarining huquqlari hisoblanadi:

- sport musobaqalarida hakamlik qilish;

- sport hakami malaka toifasiga ega bo‘lish;

- sport hakami malaka toifasini oshirib borish;

- o‘ziga nisbatan bo‘lgan e‘tirozlarning ko‘rib chiqilishida shaxsan ishtirok etish;

- sport musobaqasida hakamlik qilishda sport musobaqasi tashkilotchisidan tegishli shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish.

Quyidagilar esa sport hakamining majburiyatlari sifatida mustahkamlangan:

- tegishli sport turi bo‘yicha xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalar, sport turi qoidalari hamda sport musobaqasi to‘g‘risidagi nizomlarni (reglamentlarni) bilish va ularning talablariga qat‘iy rioya etish;

- sport musobaqalarini yuqori darajada o‘tkazishga ko‘maklashish va sport musobaqasini o‘tkazish davrida yuzaga kelgan masalalarga xolisona yondashish hamda ularga o‘z vaqtida baho berish va yechimini topish;

- yuqori madaniyatni va hamjihatlikni namuna qilib ko‘rsatish, shuningdek qo‘pollik, tartibsizlik, ishtirokchilar (sportchilar, trenerlar, vakillar, tomoshabinlar) tomonidan sport turlari qoidalari va umum-e‘tirof etilgan axloq etikasi qoidalari buzilishining oldini olish.

Sport hakamiga qonunchilik hujjatlarida boshqa huquq va majburiyatlar ham belgilanishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, Nizomda mustahkamlangan ushbu huquq va majburiyatlar ro'yxati hakamlik faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olmaydi va to'ldirilishga muhtoj.

Shuningdek, Nizomda sport hakamining quyidagi vazifalari ham ko'rsatilgan:

- sport musobaqalarini xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga, sport turi qoidalariga hamda sport musobaqasi to'g'risidagi nizomga (reglamentga) muvofiq lozim darajada hakamlik qilish hamda ularga rioya etilishini ta'minlash;

- sport turi bo'yicha sport hakami kasbiga yosh mutaxassislarni jalb qilish va ularning bu boradagi malakasini oshirishda qatnashish.

Sport musobaqalarida faol ishtirok etganligi va xolisona hakamlik qilganligi uchun sport hakamlari sport musobaqalari tashkilotchisi tomonidan sertifikatlar, diplomlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishi; vakolatli organ tomonidan yilning eng yaxshi sport hakami sifatida tan olinishi; faoliyat yuritayotgan tashkiloti tomonidan sport hakami malaka toifasini (navbatdagi sport hakami malaka toifasini) olishga tavsiya etilishi mumkin.

Sport hakamlarining javobgarligi masalasi ham mazkur Nizomning "Sport hakamligidan chetlashtirish" nomli 5-bobida nazarda tutilgan bo'lib, sport hakami o'z vazifalarini va majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganda yoki umuman bajarmaganda uning harakatlari tegishli sport federatsiyalarining (uyushmalarining) sport hakamlari hay'atlarida ko'rib chiqiladi [4].

Sport hakamining harakatlari sport federatsiyalarining (uyushmalarining) sport hakamlari hay'atlarida tegishli sport musobaqasi yakuniga yetgan kundan boshlab o'n besh kun ichida ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Sport hakamlari hay'atining majlisi to'g'risida sport hakamiga besh kun oldin tegishli sport federatsiyasi (uyushmasi) tomonidan yozma ravishda xabar qilinadi.

Sport hakami uning faoliyati ko'rib chiqiladigan sport hakamlari hay'atining majlisida shaxsan ishtirok etishga, o'z mulohazalari va e'tirozlarini bildirishga haqli.

Tegishli sport federatsiyasi (uyushmasi) hakamlar hay'ati sport turi xususiyatidan kelib chiqqan holda sport hakamini ma'lum bir muddatga sport hakamligidan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Sport hakamiga hakamlar hay'atining qaroridan ko'chirma taqdim qilinadi.

Shu bilan birga, sport sanksiyalarining turlari, ularni qo'llash tartibi, ularning ustidan shikoyat qilish sport tadbirlari tashkilotchilari tomonidan belgilanishi mumkin. Masalan, Braziliyada sport Adliya kodeksi mavjud bo'lib, unda sport hakamlari, yordamchi hakamlarning huquqbuzarliklari va javobgarligi ko'zda tutilgan [5].

**Natijalar.** Yetakchi yevropalik sport hakamlari fikricha, hakamlar sportchining eng kichik xatosini shafqatsizlarcha jazolaydigan sensor yoki zolim emas. Hakam sportchining kuchli tomonlari, imkoniyatlari va mahoratini baholashga yordam beradigan va nimalarga alohida e'tibor berish kerakligini aniq ko'rsatuvchi sherikdir. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunining 15-moddasiga ko'ra fuqarolar havaskorlik sporti, shuningdek professional sport bilan sportchi, trener yoki sport hakami sifatida shug'ullanish huquqiga ega. Qoida tariqasida, sport hakamining ishi kasb emas, balki ixtiyoriy faoliyatdir va buning uchun ish haqi to'lanmaydi. Hakamlarga musobaqada qatnashish bilan bog'liq to'g'ridan – to'g'ri xarajatlar, ya'ni yo'lkira xarajatlari, turar joy va oziq-ovqat xarajatlari qoplanadi.

Sport hakamlari huquqlarining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunida to'liq aks ettirilmagan: Qonunning 42-moddasida faqatgina jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarida ishtirok etishi vaqtida sog'lig'iga ziyon yetkazilgan sport hakamlariga qonunchilikka muvofiq tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya berilishi haqidagi norma mavjud.

Shu bilan birga, sport hakamining faoliyati xavf-xatardan holi emas va qonunchilikda qo'shimcha kafolatlar belgilanishiga muhtoj. Masalan, sport hakamlarining hayoti va sog'lig'iga sport tadbirlari davomida yetkazilgan zararni qoplash, shuningdek,

ularni muxlislar, o'yinchilar va murabbiylarning shafqatsiz va tajovuzkor harakatlaridan himoya qilish masalalari dolzarbdir. Masalan, AQShning bir qator Shtatlarida sport hakamlari va mansabdor shaxslarini tahdid va hujumlardan himoya qilish maqsadida aybdorlarga nisbatan yuqori jazolarni joriy etishni nazarda tutuvchi qonunlar qabul qilingan [6]. Fransiya qonunchiligiga ko'ra, sport hakamlari ijtimoiy foydali funksiyani bajaruvchilar hisoblanadi va ular tomonidan o'z vakolatlarni bajarish paytida yoki bajarilganligi oqibatida sport hakamlariga tajovuz qilish og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan huquqbuzarlik sifatida jazolanadi [7].

Asosiy manbalarni tahlil qilish sport hakami huquqiy maqomining sohaviy mansubligiga oid muammoning mavjudligini aniqladi. Fanda bu masala, sportchi va murabbiyning huquqiy maqomidan farqli o'laroq, zarur hajmdagi e'tibordan mahrum. Shunday qilib, ba'zi mualliflar sport hakamining huquqiy maqomi mehnat huquqiga tegishli deb hisoblasa [8], boshqa bir pozitsiyaga ko'ra, sport hakamining huquqiy maqomi fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega bo'lib, sport hakami hakamlikni amalga oshirayotganda, ko'pincha sport musobaqasi tashkilotchisining ichki mehnat tartibiga bo'ysunmaydi va hakamlikni kafolatlangan asosda muntazam ravishda amalga oshirmaydi [9].

**Xulosa.** Sport hakami professional sportning asosiy subyektlari qatoriga kiritilganiga qaramay, uning huquqiy maqomi va sohaga mansubligi qonunchilik darajasida aniq belgilanmagan. Sport musobaqalari tashkilotchisi va sport hakami o'rtasidagi sport hakamligiga oid munosabatlar ko'pincha bir martalik xususiyatga ega bo'lishiga va bunday faoliyat haq to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida amalga oshirilishiga asoslanib, uning huquqiy maqomini fuqarolik huquqiga mansub deb hisoblash lozim. Shu bilan birga, sport hakami tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish sport musobaqalari tashkilotchisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Sport hakamlarining sport musobaqalari tashkilotchilaridan mustaqilligini ta'minlash, sport turidan qat'i nazar, sport hakamlariga bir xil yondashuvni o'rnatish, shuningdek, ularning huquqlari kafolatlarini sportchilar va murabbiylarning kafolatlariga yaqinlashtirish maqsadida Sport hakamining asosiy huquq va majburiyatlarini, ularga nisbatan qo'llanuvchi sport sanksiyalarini qo'llash asoslarini va ularning turlarini, sport hakamlari huquqlarining asosiy kafolatlarini O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunida mustahkamlash zarur.

**Аннотация.** В статье рассматриваются актуальные вопросы определения правового статуса спортивных судей в соответствии с законодательством Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется спорным аспектам регулирования прав и обязанностей спортивных судей с точки зрения правовых норм. На основе анализа действующего законодательства и первоисточников сделаны выводы о правовой природе статуса спортивных судей, а также предложены рекомендации по совершенствованию правового регулирования их деятельности.

**Ключевые слова:** спорт, спортивное право, спортивные судьи, правовой статус спортивных судей.

**Annotation:** The article deals with topical issues of determining the legal status of sports judges under the legislation of the Republic of Uzbekistan. Attention is paid to the most controversial issues of regulating the rights and duties of sports referees by the norms of law. Based on the analysis of the norms of current legislation and doctrinal sources, the conclusion is made about the legal status of judges in sports, as well as suggestions for improving the legal regulation of judges' activities.

**Keywords:** sports, sports law, sports referees, legal status of sports referees.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Employee or Independent Contractor? – <https://www.referee.com/employee-or-independent-contractor/>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-2742233>
3. O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirining 2014-yil 3-iyundagi 2592-son "Sport turi bo'yicha sportchi, trener va sport hakami kasblariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'i. <https://lex.uz/uz/docs/-2401340>
4. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining 2017-yil 2-oktabrdagi "Sport hakamlari va ularning malaka toifalarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 10-mh-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3395789>
5. Карелин, А.А. (2016) Правовое регулирование трансфера (перехода) спортсменов и тренеров из одной спортивной организации в другую / А.А. Карелин // Право и экономика. – № 2. – С.52–58.
6. Lewis, D.M.H. (1998) After further review, are sports officials independent contractors / D.M.H. Lewis // American Business Law Journal. – Vol. 35. – Iss. 2. – P. 249.
7. Сослан, Х.Д. (2014) К вопросу о трудовой миграции иностранных спортсменов, тренеров и иных специалистов / Х.Д. Сослан // Законы России: опыт, анализ, практика. – № 9. – С. 16–18.
8. Duvinage, C. The role of referees in professional sports contests / C. Duvinage, P. Jost // Journal of Sports Economics. – 2019. – Vol. 20. – no. 8. – P. 1014–1050. DOI: 10.1177/1527002519851145
9. Соловьев, А.А. (2010) Опыт принятия и реализации Спортивного кодекса Франции / А.А. Соловьев // Спорт: экономика, право, управление. – № 3.
10. Ishankulov, B. M. (2024). Socio-Economic Significance Of Organizing Marketing Activities In Sports. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 123-129.
11. Ishankulov, B. M. (2022). THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCES IN PROMOTING PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 1280-1283.
12. Xayotov, A. (2023). Sport huquqining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari, 1(2), 107–113. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/59>
13. Xayotov, A. (2023). Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining xalqaro huquqiy layoqati masalalari. Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari, 1(1), 95–98. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/24>
14. Хаётов, А. (2023). Халқаро олимпия қўмитаси фаолиятини тартибга солишда олимпия хартиясининг роли. Общество и инновации, 4(2), 243-250. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/download/2802/2960/9564>
15. Хаётов, А. (2023). Автономный статус международного олимпийского комитета и отношения с различными субъектами права. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 300–307. <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N40>

**JISMONIY TARBIYA  
VA SPORT TARIXI HAMDA  
SOTSIALOGIYASI**

**HISTORY AND SOCIOLOGY  
OF PHYSICAL EDUCATION  
AND SPORTS**

**ИСТОРИЯ И СОЦИОЛОГИЯ  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
И СПОРТА**